



SHAXSNING RIVOJLANISHI, TARBIYASI VA IJTIMOIYLASHUVI

Choriyeva Maftuna

Ortiqova Farzona

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

choriyevamaftuna@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi jarayonlari psixologik hamda pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar, oilaning, ta'lim muassasasining hamda jamiyatning o'rnini ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Maqola shaxsning yoshlikdan boshlab ijtimoiy muhitga moslashuvi, unda ijtimoiy tajribani egallashi, tarbiya jarayonining rolini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, rivojlanish, tarbiya, ijtimoiylashuv, psixologiya, pedagogika, muhit, faoliyat.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida jamiyatning har tomonlama rivojlanishi bevosita barkamol shaxsning shakllanishi bilan bog'liqdir. Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi psixologiya va pedagogika fanlarining eng muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Insonning hayoti davomida rivojlanishi uzluksiz jarayon bo'lib, bu jarayonda irsiyat, muhit, tarbiya va faoliyat kabi omillar muhim rol o'ynaydi.

Shaxsning ijtimoiylashuvi – bu jamiyatda yashash uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, qadriyat sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mazkur kurs ishida shaxsning rivojlanish bosqichlari, tarbiyaning o'rnini va ijtimoiylashuv jarayonining pedagogik jihatlari tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

1. Shaxsning rivojlanishi: mohiyati va omillari

Shaxs rivojlanishi – bu insonning jismoniy, ruhiy, intellektual va ijtimoiy jihatdan o'sib borishini aks ettiruvchi murakkab jarayondir. Rivojlanishga ta'sir etuvchi asosiy omillar quyidagilar:

1.1. Irsiyat (biologik omillar)

Irsiy omillar shaxsning tabiiy xususiyatlarini, temperamentini, fiziologik o'zgacha jihatlari belgilaydi. Masalan, nerv tizimi tipi, tug'ma qobiliyatlar bolaning keyingi rivojlanishiga zamin yaratadi.



Bola yashaydigan oila, maktabgacha ta'lim tashkiloti, maktab, tengdoshlar guruhi va keng jamiyat shaxsning shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ijobiy muhitda ulg'aygan bola odatda faollik, o'ziga ishonch va sog'lom ijtimoiy xulq-atvorga ega bo'ladi.

Tarbiya shaxs rivojlanishining bosh omili sifatida e'tirof etiladi. Yaxshi tashkil qilingan tarbiya bolaning qobiliyatlarini ro'yobga chiqaradi, irodasini mustahkamlaydi, mustaqil fikrlashga yordam beradi.

Inson o'z yaqinlari, ustozlari va jamiyat bilan faol munosabatga kirishar ekan, unda yangi kompetensiyalar shakllanadi. Faoliyat – bu shaxs shakllanishining asosiy dvigateli.

2. Tarbiyaning shaxs rivojlanishidagi o'rni

Tarbiyaning asosiy maqsadi – jamiyat talablariga mos bo'lgan barkamol shaxsni voyaga yetkazishdir. Maktabgacha yoshda bola shaxsining asosiy xislatlari – xulq, nutq, fikr tizimi, javobgarlik, muloqot ko'nikmalari shakllana boshlaydi.

Oilada bola ilk ijtimoiy tajribani egallaydi. Ota-onaning mehr-muhabbati, tartib-intizomi, muloqot madaniyati bola xarakterining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim tashkilotlarida bolaga jamoada ishlash, o'z fikrini ayta olish, o'z-o'zini boshqarish malakalari beriladi. Pedagoglarning maqsadli ishlari shaxsning ma'naviy va intellektual rivojini ta'minlaydi, muloqot va suhbatlar, o'yin texnologiyalari, kuzatish, amaliy mashg'ulotlar, rag'batlantirish va motivatsiya berish.

Bu metodlar bolaning faol ishtirokini ta'minlab, tarbiya samaradorligini oshiradi.

3. Shaxsning ijtimoiylashuvi: jarayon va bosqichlar

Ijtimoiylashuv shaxsning jamiyatda faol ishtirok etishiga imkon beradigan uzluksiz jarayondir. U quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Bola oilada ilk bor ijtimoiy me'yorlar, odob-axloq qoidalari bilan tanishadi. Til, muloqot, his-tuyg'ularni boshqarish ko'nikmalari shakllanadi.

Maktab, bog'cha, tengdoshlar guruhi, ommaviy axborot vositalari orqali kengaytirilganfarzand ijtimoiy tajriba hosil qilinadi. Bola jamoada o'z o'rnini topadi.

Rasmiy ijtimoiylashuv — ta'lim tizimi orqali sodir bo'ladi.

Norasmiy ijtimoiylashuv — do'stlar, qo'shnilar, internet, madaniy muhit orqali yuz beradi.

O'quvchi, do'st, jamoa a'zosi kabi rollarni egallash shaxsning ijtimoiy moslashuvini ta'minlaydi.

XULOSA

Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi uzviy bog'liq, uzluksiz hamda ko'p



omilli jarayonlardir. Irsiyat bola uchun biologik zamin yaratadi, ammo uning kim bo‘lib yetishishi ko‘proq muhit, tarbiya va faoliyatga bog‘liq. Oila, ta’lim muassasalari va jamiyat birgalikda ishlagan taqdirdagina shaxsning har tomonlama kamol topishi ta’minlanadi. Ijtimoiylashuv jarayoni esa shaxsni jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida rivojlantirishning muhim bosqichidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.M. “Oila psixologiyasi”. – Toshkent.
2. G‘oziev E. “Umumiy psixologiya”.
3. Xolmatova M. “Pedagogika asoslari”.
4. Vygotskiy L.S. “Psixologiya va rivojlanish nazariyalari”.
5. Zokirov A. “Ijtimoiy psixologiya”.
6. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim konsepsiyasi.
7. Internet manbalari (ilmiy maqolalar, psixologik tahlillar).